



QURILISH XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI KORXONALARNING O'ZIGA
XOS XUSUSIYATLARI

Mamadiyev Ahmad Ulashovich

Qarshi tumani hokimining qurilish, to'siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jaligi, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari,
E-mail: ahmadmamadiyev4gmail.com

Annotatsiya: *Qurilish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarini milliy iqtisodiyotni tashkil etish tizimida ishlab chiqarish jarayonini shakllantirish va uning moddiy asosi sifatida alohida o'rin tutadi. Qurilish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarini darajasi iqtisodiy rivojlanish darajasini tavsiflaydi, mamlakatning raqobatdoshligini, korxonalarini kapitallashtirish darajasini belgilaydi. Maqolada muallif qurilish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarining o'ziga xos xususiyatlarini bayon etgan.*

Kalit so'zlar : *xizmat ko'rsatish, qurilish, xizmatlari, korxonalar, iqtisodiyot, iste'mol, tovar, ishlab chiqarish, mehnat, innovatsiya, investitsiya, marketing, bozor, texnologiya.*

Аннотация: *Предприятия, оказывающие строительные услуги, занимают особое место в системе национальной экономики, формируя производственный процесс и выступая его материальной основой. Уровень развития предприятий строительных услуг характеризует степень экономического развития страны, определяет её конкурентоспособность и уровень капитализации предприятий. Кроме того, деятельность данных предприятий способствует созданию новых рабочих мест, привлечению инвестиций и развитию смежных отраслей экономики. В данной статье автор раскрывает особенности предприятий, оказывающих строительные услуги, а также рассматривает их роль и значение в современных условиях рыночной экономики.*

Ключевые слова: *сфера услуг, строительство, строительные услуги, предприятие, экономика, потребление, товар, производство, труд, инновации, инвестиции, маркетинг, рынок, технология.*

Abstract: *Construction service enterprises occupy a special place in the national economic system, as they contribute to the formation of the production process and serve as its material foundation. The level of development of construction service enterprises reflects the degree of economic development, determines the country's competitiveness, and influences the level of enterprise capitalization. Furthermore, these enterprises contribute to job creation, investment attraction, and the development of related sectors of the economy. This article examines the specific characteristics of construction service enterprises and highlights their role and significance in the modern market economy.*

Key words: *service sector, construction, construction services, enterprise, economy, consumption, goods, production, labor, innovation, investment, marketing, market, technology.*





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Qurilish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarni milliy iqtisodiyotni tashkil etish tizimida ishlab chiqarish jarayonini shakllantirish va uning moddiy asosi sifatida alohida o'rin tutadi. Qurilish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarni darajasi iqtisodiy rivojlanish darajasini tavsiflaydi, mamlakatning raqobatdoshligini, korxonalarni kapitallashtirish darajasini belgilaydi. Iqtisodiyotning raqamlashuvi sharoitida katta e'tibor qaratilayotgan iqtisodiy kategoriyalardan biri bu Qurilish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalari tushunchasidir. Korxonalarda iqtisodiy jarayonlarning sodir bo'lishi va unga ma'lum darajada foyda keltirish uchun moddiy va mehnat ryesurslari bilan birgalikda nomoddiy aktivlar ham ishtirok etadi. Ularning jamlanmasini oldingidek moddiy va mehnat resurslari deb atab bo'lmaydi. Agar shunday qilinsa, ularning tarkibiga nomoddiy aktivlar kirmay qoladi. Shu tufayli, ularni korxonaning iqtisodiy tarkibi deb atash maqsadga muvofiq. Chunki bunda moddiy resurslar bilan birgalikda nomoddiy aktivlar va mehnat ryesurslari to'liq o'z ifodasini topadi. Bozor munosabatlari sharoitlarida har bir korxonada ishlab chikarishning tuxtovsiz usishi, maxsulot sifatining oshirilishi va uning o'z vaqtida sotilishi, shuningdek, rejalashtirilgan foyda va daromadni o'z vaktida olish asosida uzining tez rivojlanishini ta'minlashga intiladi. Shu sababli korxonada faoliyati ko'p maqsadli va dinamik xarakterga ega bo'lib, innovatsion taraqqiyotga yunaltirilgan, ishlab chiqarish quvvatlari va resurslardan samarali foydalanishga intiluvchi va bozor kon'yunkturasiga o'z vaqtida va tezkorlik bilan javob qaytaraolishi lozim.

Mazkur maqolada qurilish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etar ekanmiz, o'z navbatida qurilish sanoati – bu ma'lum bir mamlakat hududida turar joy va noturarjoy binolari qurish bo'yicha faoliyat majmuasidir degan xulosaga keldik. O'z navbatida bizningcha, qurilish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar- bu ma'lum bir mamlakat hududida turar joy binolari va noturarjoy majmualarini qurish faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalaridir. Qurilish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarining xizmati esa aynan turar-joy va noturar joy binolarini qurish faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarining iqtisodiy faoliyatiga turli usul va vositalar orqali ta'sir etishni tushunish mumkin. YA'ni korxonani xizmat ko'rsatishi – bu korxonada iqtisodiy faoliyatini ilmiy, texnik, sanoat, texnologik, ma'muriy va boshqa sohalarda boshqaruv funksiyalari va tamoyillariga asoslangan holda tashkil etish demakdir. Qurilish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar o'z navbatida - bu qurilish majmuasining asosiy bo'g'ini bo'lib ularni quyida keltirilgan ko'plab mezonlar bo'yicha tasniflash mumkin.

Jumladan, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning iqtisodiy maqsadiga ko'ra barcha qurilish korxonalari 2 guruhga bo'linadi:

1. Ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi korxonalar;
2. Iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalar.

Bundan tashqari, kapital qurilishdagi faoliyat mazmuniga ko'ra qurilish korxonalarini quyidagilarga bo'lish mumkin:

- qurilish va montaj ishlarini bajarish (barcha turdagi qurilish ishlarini bajarish);
- qurilish sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish ishlarini bajarish (qurilish materiallari va mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun);





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



-qurilish transporti korxonalari (qurilish ishlab chiqarish elementlarini tashishni amalga oshiruvchi korxonalar);

-mexanizatsiyalashuv korxonalari (qurilish texnikalaridan foydalanish va ta'mirlash korxonalari) va boshqalar.

Qurilish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarni tadqiq etishda uning bugungi mavjud holati hamda rivojlanish imkoniyatlarini qarab chiqish lozim bo'ladi. Chunki qurilish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarining boshqa tarmoq korxonalaridan farqli jihatlari mavjud bo'lib, ushbu jihatlar korxonalar rivojlanishi va samarali faoliyat olib borishida muhim rol o'ynaydi. Qurilish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarining ishlash mexanizmlarida o'z ifodasini topgan qurilish sanoatining quyidagi asosiy xususiyatlarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

1. Qurilish obyektlarining tovar sifatida turg'un joylashganligi va asosiy vositalarning mobilligi.

2. Qurilish faoliyati olib borilishining ob-havo va atrof-muhit ta'siriga bog'liqligi.

3. Ishlab chiqarish jarayonining davomiyligi uzoq vaqt talab qilinishi hamda qurilish mahsulotlari (tovarlari)ning yuqori xarajatga ega ekanligi.

4. Hamkorlikning o'ziga xos shakllari.

5. Brigada ishini tashkil etish qiyinchiliklari.

6. Ijrochilardan asosiy mehnat vositalarini begonalashtirgan holda maxsus ixtisoslashuv shaklining mavjudligi.

7. Maxsus to'lov shakllaridan foydalanish.

8. Qurilish ishlab chiqarishining katta moddiy sarfga ega ekanligi.

Yuqorida keltirilgan xususiyatlardan shuni aytish mumkinki, qurilish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarining iqtisodiyoti milliy iqtisodiyotning barcha boshqa tarmoqlari iqtisodiyotidan sezilarli farq qiladi degan xulosaga kelish mumkin. Aytaylik qurilish tarmog'idagi mavjud holat boshqa tarmoq imkoniyatlaridan farqli jihatlari o'z navbatida ish jarayonining tashkillashtirilishi, ko'p miqdordagi xarajat talab etilishi, maxsulot (tovar) shakli va xususiyatlari bilan farq qilishi bundan tashqari qurilish faoliyati olib borilishida ob-havoning to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatishi va boshqalar.

1-jadvalda qurilish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarining elementlari va uning tarkibiy qismlari shakllanishi va ishlash jarayoni xususiyatlari va cheklovlar ketma-ketligi keltirilgan Qurilish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarining kategoriyasini ta'sir etish doirasiga ko'ra moliyaviy , ishlab chiqarish , mehnat, innovatsion, investitsion kabi turlarga va ayrim iqtisodiy adabiyotlarda marketing , bozor , texnologik va boshqaruv tarkibiy qismlarga ham ajratilgan.





Qurilish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarining
o'ziga xos xususiyatlari¹⁰⁷

Xususiyatlar	Muallifning qurilish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda iqtisodiy samaradorlikni boshqarishga bo'lgan qarashlari
1. Qurilish obektlarining harakatsizligi va ishlab chiqarish	Qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarish tasdiqlangan loyiha bo'yicha ma'lum bir joyda amalga oshiriladi va ishchilar uchun vaqtinchalik inshootlar, materiallarni saqlash uchun omborlar va boshqalarni yaratishni talab qiladi, bundan tashqari, ba'zi materiallarni qurilish maydonlarida saqlash mumkin emas. Shu munosabat bilan, ishlab chiqarish jarayonining barqarorligini saqlashda, boshqariladigan mashinalar va mexanizmlarning, qurilish materiallari va mehnat resurslarining roli oshadi, shuning uchun qurilish korxonasi iqtisodiy tarkibini tahlil qilishda ishlab chiqarishning mavjud omillaridan foydalanish intensivligi ta'sirini tavsiflovchi ko'rsatkichlardan foydalanish zarur.
2. Katta kapital hajmiga ega ekanligi va qurilish ishlab chiqarishining moddiy sarfi yuqoriligi	
3. Texnologik jarayonning atrof – muhitga to'g'ridan to'g'ri ta'siri mavjudligi	Qish mavsumida qurilish ishlari yilning ushbu vaqtda ishlash uchun qulay bo'lgan qurilish materiallari va asbob-uskunalaridan foydalanish zaruratini paydo qiladi. Shu tufayli qurilish-montaj ishlari narxining oshishiga olib keladi. Kichik korxonalardan farqli o'laroq, yirik korxonalar uchun mavsumiylikning ta'siri unchalik katta emas, chunki ular qurilish vaqtini buzmaslik uchun bunday xarajatlarni to'lay oladilar. Aks holda, to'xtab turish yoki ishni faqat faol qurilish davrida olib borish korxonalarda aylanma mablag' yetishmasligiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun qurilish korxonalarining iqtisodiy tarkibini tahlil qilganda, moddiy -texnik resurslardan foydalanish samaradorligini hisobga olish zarur hisoblanadi.
4. Ishlab chiqarish siklining davomiyligi va qurilish mahsulotlarining yuqori smeta qiymatga ega ekanligi	Qurilish davomiyligini yillar bilan hisoblash mumkin, shuning uchun yoqilg'i -moylash materiallari narxlarining muntazam ravishda oshib borishini hisobga olish kerak. Vaholanki, qurilish materiallari narxining oshishi aksariyat hollarda korxonalarining aybi bilan sodir bo'lmaydi, balki obektiv holatlar tufayli sodir bo'ladi. Ba'zi hollarda korxonalar aylanma mablag'larga bo'lgan

¹⁰⁷Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



5. To'lovlarning maxsus shakllari mavjudligi	ehtiyojni keskin oshirishi mumkin, bu asosan qarz mablag'lari hisobidan qoplanadi. Shuningdek, bu omillar foyda hajmini rejalashtirish xususiyatiga ta'sir qiladi. Shunday qilib, qurilish korxonasining iqtisodiy tarkibini tahlil qilganda, moddiy -texnik resurslardan tashqari, moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlarini va ulardan foydalanish samaradorligini baholashni talab etadi.
6. Hamkorlikning o'ziga xos shakllari mavjudligi	Bir korxonada yoki turli korxonalarda ishlab chiqarish aloqalarini o'rnatish va ishlab chiqarish jamoalaridagi ishchilar uyushmasi ishchilar o'rtasida oqilona mehnat taqsimotini nazarda tutadi. Binobarin, mehnat resurslarini samarali boshqarish korxonaga nafaqat ishchilar ishlab chiqarishni ko'paytirishga, asbob-uskunalar, qimmatbaho yarim tayyor mahsulotlar va materiallardan yaxshiroq foydalanishga, balki uning iqtisodiy tarkibiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishga imkon beradi.
7. Brigada ishini tashkil etilishi	
8. Ixtisoslashuvning maxsus shakliga ega ekanligi	

Qurilish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarning moliyaviy tarkibi korxonada juda muhim o'rin egallaydi. Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda "moliyaviy samaradorlik" tushunchasiga berilgan turli xil ta'riflar mavjud.

Masalan, qurilish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarning moliyaviy tarkibi korxonada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan maksimal moliyaviy natijaga erishish bilan bog'liq munosabatlarni o'z ichiga oladi va ular quyidagicha talqin qilinadi:

- likvidlik va moliyaviy barqarorlik shartlarini qondirish uchun yetarli bo'lgan o'z kapitalining mavjudligi;
- samarali investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan miqdorda kapital jalb qilish imkoniyati;
- kiritilgan kapitalning rentabelligi;
- samarali moliyaviy boshqaruv tizimining mavjudligi, joriy va kelajakdagi moliyaviy holatning shaffofligini ta'minlash .





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Foylanilgan adabiyotlar

1. Совершенствование методики анализа экономического потенциала хозяйствующего субъекта: монография / Т. Г. Шешукова, Е. В. Колесень; Перм. гос. нац. исслед. ун-т- Пермь, 2013. - 196 с. (с.14).
2. Фомин П.А., Старовойтов М.К. Особенности оценки потенциала промышленных предприятий. [Электронный ресурс]. Режим доступа: http://www.cfin.ru/management/manufact/manufact_potential.shtml (дата обращения: 27.06.2012).
3. Фомин П.А., Старовойтов М.К. Особенности оценки потенциала промышленных предприятий. [Электронный ресурс]. Режим доступа: http://www.cfin.ru/management/manufact/manufact_potential.shtml (дата обращения: 27.06.2012).
4. Гунина, И. А. Взаимовлияние общеэкономических проблем и проблем развития экономического потенциала предприятия в современных условиях / И. А. Гунина // Машиностроитель. – 2004. – № 10. – С. 19–23.
5. Гунина, И. А. Экономический потенциал предприятия: сущность, содержание, структура / И. А. Гунина // Машиностроитель. – 2004 . – № 11. – С. 24–28.

